Mantiqan bir butun holga keltirilgan bir necha usullardan tashkil topgan hujum kombinatsiyalaridan iborat usul. Bu sifat jihatdan yangi usul bo'lib bir uslubning boshlang'ich harakatining o'z ichiga olib qulay dinamik vaziyatni vujudga keltiradi hamda ikkinchi usulning yakunlovchi qismini ham o'z ichiga olib o'sha vujudga keltirilgan vaziyatdan foydalaniladi.

Sport kurashining hozirgi zamon texnikasi bu raqib ustidan g'alaba qozonishga qaratilgan polvon harakatlarining muayyan tartibidir. Ko'p yillik kurash tajribasi hujum qiluvchi, himoyalovchi va qarshi hujumga o'tuvchi sportchi harakatlarining eng samarali tuzilishini ishlab chiqish imkonini beradi.

Polvonni texnik jihatdan tayyorlashda xujumga o'tish harakatlari yetakchi rol o'ynaydi. Kurash qoidalarida hujumga o'tish harakatlarini qo'llagan polvonlari rag'batlantiriladi. (Kochurko ye.I., Semkin.A.A 1984y).

Filin.V.P.,Fomin.N.A.larning fikrlariga qaraganda, sport kurashida ko'pincha oddiy hujum harakatlari muvaffaqiyatga olib keladi. Olimlar o'tkazgan tadqiqot natijalarida shu narsa isbot qilinganki, usul ko'rinishini darhol tatbiq etib, texnik-taktik hujumga o'tilgan kezlarda maqsadga erishish qiyin bo'ladi. Odatda shunday hujum harakatlari qo'llanganda muvaffaqiyatga erishiladiki, qulay dinamik vaziyatni vujudga keltirish usullari hamda hujum usullarining tuzilishi

yagona bir harakatga aylanib, harakat yig'masi deb ataladigan usulni vujudga keltiradi.

Usulni amalda qo'llash uchun taktik tayyorgarlik ko'rish usullarini guruhlab klassifikatsiya qilishni birinchi marotaba A.N.Lens (1967) ishlab chiqdi. U tuzgan ta'rifga binoan texnik harakatlarni o'tkazish uchun qulay bo'lgan vaziyat hosil qilinadigan vositalar 3 ta bo'limga bo'linadi;

- kurashchi o'zi uchun qulay bo'lgan usulni tanlab raqibining himoya vositasini vujudga keltiradigan vositalar (qo'rquv, siqib qo'yish, muvozanat holatidan chiqarib yuborish);

- raqib tomonidan aktiv ta'sir qiladigan va kurashchi uchun qulay bo'lgan vaziyatni vujudga keltiradigan vositalar;

- raqib e'tibor bermaydigan yohud juda kam e'tibor berib, e'tiborsizlik bilan o'zini bo'sh qo'yadigan holatni vujudga keltirish maqsadida polvon tomonidan qo'llaniladigan usullar (takroriy hujum, teskari da'vat, ikki bor ketma-ket aldash harakatlari va boshqalar).

I.I.Alixonov (1986) faqat shunday kombinatsiyalarni takomillashtirishni tavsiya etadilarki, bu kombinatsiyalar chog'ida birinchi usuldan himoyalanih ikkinchi uslub uchun qulay vaziyat yaratadi. Biroq, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu faqat kombinatsion harakatlarning bir turidir.

Olib borilgan bir qancha tadqiqotlar natijasida R.A.Piloyan, V.T.Ja'faraliyev,(1984) birinchi marta kurashchilar olishuvi qurilishishdan iborat taktik harakatlar ajratib ko'rsatildi. Bu harakatlar yordamida turli usullar va vositalar yordamida quyidagi aniq vaziyatlarni amalga oshirish mumkin:

- . sinov o'tkazish - bunda kurashchilarning katta "sohta" faollik ko'rsatib amalga oshiradigan harakatlari ko'zga tashlanadi;

- . hujumni amalga oshirish - bunda hech qanday oldindan tayyorgarlik ko'rmasdan birdaniga qo'llaniladigan texnik hujum qilish usuli yaqqol ko'zga tashlanib turadi va u mazkur xarakatlar uchun xarakterli xususiyat hisoblanadi;

- . qarshi hujumga o'tish - bunday maqsadni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit raqib tomonidan hujum harakatlari amalga oshirib turilgan

paytda ham, shuningdek, maxsus harakatlar bilan hosil qilinadigan vaziyatlarda ham paydo bo'lishi mumkin;

- . himoyani amalga oshirish - himoya harakatlari raqib tomonidan muayyan hujum harakatlarini o'tkazish uchun hamla qilingan paytdan boshlanadi va himoya harakatlarining amalga oshirilishi bilan, yoki bo'lmasa, raqib tomonidan hujum harakatlari oshirilishi bilan tugallanadi;

- . aktivlikni namoyish qilish - bunday harakatlarni bajarishga aqd qilingan paytning boshlanishi va tamom bo'lish vaqtlari bir oz qorishib ketgan bo'lib, bunga kurashchining o'zi tomonidan aniqlik kiritilishi talab qilinadi;

- . kurashchi o'zining yutib olgan ballari hisobiga ustunlikka erishganidan keyin ana shu ustunlikni saqlab turishi lozim;

- . kuch - quvvatni tiklab olish - buning uchun kurashchi samara beradigan usullardan foydalanib, o'z raqibini himoyalashga majbur qiladi va shu vaqtda chuqur nafas olishga erishadi, muskullarini bo'shashatirishga imkon tug'iladi.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, olishuv davomida harakatlarni bu xilda taqsimlab chiqilishini u yoki bu kurashchi erishgan bu ustunlik darajasining o'zgarilishiga qarab biroz boshqacharoq tartibda amalga oshirish ham mumkin.

L.K.Gukovning ma'lumotlari bo'yicha, musobaqalarda muvaffaqiyatga erishishi uchun kurashchi o'ziga ajratilgan vaqtning 60% ni hujum qilish va himoyalash usullarga sarf qilishi kerak. Qolgan boshqa taktik harakatlarni baholashda ularning amalga oshirilish foizi mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga qarab shuni ta'kidlash mumkinki, sportchilar musobaqalarda qolib chiqishi uchun 70% kuzatuv harakatlarini 60% aktivlikni namoyish etish harakatlarini, 100% havfli holatni amalga oshirish harakatlarini, 80% ustunlikni saqlab qolish harakatlarini, 80% kuch-quvvatni tiklab olish harakatlarini, 100% havfli holatni yo'qotish harakatlarini amalga oshirishi lozim.

Kojarskiy.V.P.,Sorokin.N.N (1979y) shunday fikr bildiradi, kurashda qo'llaniladigan usullar tuzilmasini o'zlashtirib olinganidan keyingina kombinatsiyani o'rgana boshlash zarur, deb hisoblaydi. Kurash texnikasini

takomillashtirish uchun shug'ullanuvchilar usullarga tayyorgarlik ko'rishning taktik elementlarini o'zlashtirib olishlari kerak.

SHundan keyingi taktik tayyorgarligi mazkur usul bilan boshlanadigan kombinatsiyalarga taktik tayyorgarlik vazifani ham o'taydi.

Qulay sharoit yaratish hollarini o'rganish vaqtida kurashchining raqibi tomonidan qo'llanilgan usulga javoban oldindan tegishli himoya chorasini ko'rishi kerak.

Asosiy g'alabaga erishishda tayyorgarlik harakatlari ancha katta rol o'ynaydi. SHuning uchun ularni bir-biri bilan o'zaro mahkam bog'liq holda takomillashtirib borish lozim. Takomillashtirib borishda asosiy bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tish fazasi hisoblanadi (A.A.Novikov, 1970).

Mahorat darajasi qancha yuqori bo'lsa, qiyinchilik shuncha kamroq bo'ladi (Ivanov.V.V, 1971y).

Kurashda ba'zi bir tayyorgarlik harakatlariga o'rgatish uslubiyatini birinchi marta ishlab chiqqan (Godik.M.A, 1980y) usullarni qo'llashga tayyorgarlik usullarini o'rganishni o'zlashtirib olganidan keyin amalga oshirish lozim, deb hisoblaydi.

Raqib muvozanatini yo'qotib qo'yishga asoslangan texnik-taktik xarakatlarni shakillantirish qonuniyatlarini ochib berishga harakat qilib ko'rgan olimlar ham bor. Biroq F.A.Kerimov texnik harakatlarni yaxlit holda o'rganishning usullarini o'rganib olganidan keyingina boshlash kerak, raqibning muayyan tarzdagi himoyasi esa tayyorgarlik jarayonining sifatini ko'rsatuvchi bir mezon bo'ladi, deb hisoblaydi.

Galochkin.G.P (1987y) hujum uchun dinamik vaziyatlarning quyidagi besh guruhdan foydalanishni tavsiya etadi:

- raqib gavdasi "barqarorlik burchagini yengib" uni ag'darishga nisbatan qulay tomon bilan turib qolganida;
- harakat natijasida raqibning og'irlik markazi tayanch maydonning chetiga kelib ag'darish, barqarorlik kichraygan paytda;
- raqibning og'irlik markazi tezlik bilan yuqoriga ko'cha boshlaganida;

- raqib “mutlaq nuqtada” turib qolganida (raqib reaksiyasining latent davrida) hujumga o'tish mumkin.

SHuningdek, kurashchi o'zining harakatlari bilan turli hil dinamik vaziyatlarni tayyorlay olishni bilishi kerak. Raqib holati yuz bergan vaziyatni ko'rsatuvchi mavjud alomatlarni idrok etish va baholashni o'rganib, texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish mahoratini egallab olish jarayonini ancha tezlashtiradi (Novikov.A.A, 1987y)

A.K.Atoyev kurashchining texnik-taktik tayyorgarligi to'g'risida quyidagi fikrlarni bildirgan. Kurashda usullar texnikasi va harakatlar taktikasi bir butun holatda namoyon bo'ladi.

Texnika – kurash usullarini bajarish uslubi, taktika esa kurash vaqtida turli xil vaziyatlarni hal etish uchun texnik harakatlarni qo'llash usulidir. Bunda o'zining hamda raqibining imkoniyatini hisobga olish kerak, albatta.

Kurashish usullari va harakatlariga o'rgatish, ularni takomillashtirishni quyidagi prinsip asosida, ya'ni usul harakatlariga o'rgatish va usullarni ularning kombinatsiyalarini tushunish asosida olib borish lozim.

Texnik tayyorgarlik – o'quv mashg'uloti jarayonining eng muhim tomonidir. U o'quv mashg'ulot jarayonida takomillashtiriladi va individuallashtirilib boriladi.

SHuning uchun ham unga katta e'tibor beriladi. Sportchining texnikasi qanchalik boy bo'lsa, u kurashdagi ayrim usullar va harakatlarining taktik ma'nosini qanchalik yaxshi tushunsa, uning taktik mahorati shunchalik yuqori bo'ladi.

Kurashchi texnik tayyorgarligi darsining yuqori bo'lishiligi – bu texnik tayyorgarlikka, ya'ni kurash sohasidagi harakat ko'nikmalarini aniq ravishda tarkib toptirish, ularni takomillashtirish, shu bilan birga eng muhim jismoniy va irodaviy sifatlarni rivojlantirishga bog'liq ekanligiga asoslanishi kerak.

SHu sababli kurash maktabi bilan belgilangan harakat usullari va ish ko'rish usullarini tarkib toptirish va takomillashtirishda faqat usullar texnikasini egallab olish emas, balki turli rag'iblar kurashganda, shu texnikani mohirona

qo'llash lozimdir. Bu esa sportchi kurash texnikasini yuksak darajada egallagan bo'lishi va kurash vaziyatida g'alabaga erishish uchun mana shu texnikani mohirona qulay bilishi, ya'ni rang-barang taktikaga ega bo'lishi kerak, degandir.

Bularning hammasi texnika va taktika bir-biri bilan o'zaro chambarchas bolanibgina qolmay, balki axlohiy va irodaviy tayyorgarlik jihatidan ham o'zaro bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

Kurashchining texnik tayyorgarligi sportchi tomonidan yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlovchi harakatlar tizimining ekanligi darajasi bilan tavsiflanadi.

Sport kurashida texnik tayyorgarlik bir qator murakkab harakatlarni hal etadi:

- maksimal kuchlanishdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ish kuchlanishini tejash;
- musobaqa faoliyatining o'zgaruvchan holat sharoitlarida

Harakatlanish tezligi, aniqligini oshirish (F.A.Kerimov, 2001y).

Nikulichev.V.A.(1981y) ning fikricha kurashda ko'pincha oddiy hujum harakatlari emas, balki murakkablari muvoffaqiyat keltiradi. U o'tkazgan tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, usul tuzilmasidan darhol boshlanadigan texnik-taktik hujum kamdan-kam maqsadga erishishga olib keladi.

Odatda, qulay dinamik vaziyatni tayyorlash uslubi hamda hujum usuli tuzilmasi yaxlit harakatga, ya'ni harakat ansambiliga qo'shilib ketadigan hujum harakatlari muvoffaqiyat keltiradi.

Taktik tayyorgarlik vazifalarini 3 ta asosiy vazifaga bo'ladi, ya'ni:

- taktik bilimlarga ega bo'lish;
- taktik ko'nikmalarni egallash;
- taktik malakalarga ega bo'lish.

Taktik vositalarga qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ulurni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar bilan ifodalanadigan sportchilar harakati kiradi.

Dimov.YA (1985y) usullarni amalga oshirish taktikasini quyidagi ketma-kelikda egallashni tavsiya qiladi:

- usulni bajarishning taktik shart-sharoitlari bilan tanishishi;
- Qulay vaziyatlarda bajarish;
- Qulay sharoitlarni yaratish usullarini egallash, ularda raqib aldamchi harakatiga javoban oldindan belgilangan himoyalash bilan javob qaytarish lozim;

- texnik harakatning optimal variantini tanlash va muayyan dinamik vaziyatga muvofiq holda uni bajarish tuzilmasiga ayrim o'zgartirishlarni kiritish.

Asosiy usulni samarali bajarishda tayyorlov harakatlari katta ahamiyatga ega, shuning uchun ular uzviy bog'liqlikda takomillashtirilishi lozim.

Takomillashtirilishda asosiy qiyinchilik harakatning bir turidan ikkinchisiga o'tish fazasida yuzaga keladi.(Taymuradov.A.R 1990y).

Sport turlari tasnifi bo'yicha sport kurashi uchinchi guruhga kiradi (S.V.Firfel, 1969; YU.V.Veroxsharskiy,1985). Uning uchun charchashning kompensatorli turi va o'zgaruvchan ish shiddati sharoitida harakatlarning yuqori variantlilikiga xosdir.

Musobaqa faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, tashlili sport kurashi turlarini ichida tasniflarni ishlab chiqish zarurligi to'g'risida guvoshlik beradi.

Sport kurashida musobaqa faoliyatining tashlili shamma kurash turlariga xos bo'lgan tezkor-kuch tayyorgarligi shunda maxsus chidamlilikka bo'lgan talab qo'yadi. Buni esa yosh kurashchilarning ko'p yillik trenirovkasini rejalashtirishda shisobga olish lozim.

SHu biz belbog'li kurashchilarni musobaqa faoliyati tasnifini quyidagicha tuzdik: musobaqani nomi, o'tkazilish vaqti, vazni, yutuqlar soni, egallagan o'rni, yonga yiqitish, chapga va o'ngga ilib tashlash, qoqma usuli, aylantirib tashlash, son yordamida tashlash, beldan oshirib tashlash, yonbosh.

Buning uchun biz uchta 2 marta O'zbekiston birinchiligi va O'zbekiston chempionatida kuzatish olib bordik.

Belbog'li kurashchilar Navoiy Olimpiya zashiralari kollejiga qabul qilingan vaqtda va bir yildan keyingi UJT farqi.

Gurushda o'qiyotgan 14 boladan 8 tasi 17 yoshli, 9 tasi 16 yoshli, 11 tasi I-razryadli, 3 tasi II-razryadli edi.

SHozirgi kunda 11 tasi sport ustaligiga nomzod bo'ldi. 3 ta II razryadlilar I-razryad me'yorini bajarishdi.

Turnikda tortilish bo'yicha kirish vaqtida o'rtacha 16 martadan tortilgan bo'lsa, shozirgi kunda 22,9 martaga, ya'ni 43,12 foizga oshdi.

Turnikda osilgan sholda oyoq bilan 90^0 burchak shosil qilib turish bo'yicha dastlabki sholatda 15,7 soniya osilib turgan bo'lsa, bir yil ichida 59,23 foizga oshdi. CHunki, kuch sifatining maksimal namoyon bo'lishida natijaga rushiy shozirlik ko'rish, iroda shal qiluvchi ashamiyat kasb etadi.

Asab-mushak birliklari maksimal miqdorning ishchi sholatini ta'minlash uchun chegaraviy yoki chegara oldi darajasidagi og'irliklar zarur. Kuchni rivojlantirish uchun qulay morfologik shamda funksional sharoit o'g'il bolalarda dinamik kuch mashqlariga yuqori sezgirlik 2 davrdan iborat: 9,10-12 yoshgacha va 14-17 yoshgacha.

30 m ga yugurish bo'yicha 20,68 foizga natija yaxshilandi. 10 m x 3 m ga yugurish bo'yicha kollejga kunida 6,79 soniya vaqt ko'rsatgan bo'lsa, shozirgi kunda 5,73 soniya natija ko'rsatib, 15,61 foizga oshirdi.

13-14 yoshli o'smirlarda yugurish tezligi va tana uzunligi orasida chambarchas aloqa kuzatiladi: baland bo'yli o'smirlar past bo'yli tengdoshlari oldida shubshasiz ustunlikka ega.

1-jadval

Navoiy olimpiya zashiralari kollejida o'quvchilarni dastlabki
va bir yildan keyingi UJT ma'lumotlarni qo'llash.

№	F.I.O	Tug'ilgan sanasi	Sport darajasi		Turnikda tortilish (marta)		Turnikda osilgan sholda 90 ⁰ burchak shosil qilish		30 m ga yugurish		Maksimal yugurish (10 x 3 m)		1000 metrga yugurish	
			Kirgan vaqt	SHozir gi kunda	Kirgan vaqt	SHozir gi	Kirgan vaqt	SHozir gi	Kirgan vaqt	SHozir gi kunda	Kirgan vaqt	SHozir gi kunda	Kirgan vaqt	SHozir gi kunda
1.	Xaitov Nodir	1991	1 raz	KMS	14	25	14 s	30 s	4,6 s	3,6 s	6,90 s	6,30 s	4,0 s	3,67 s
2.	Boymuxamedov SH.	1991	1 raz	KMS	18	27	16 s	27 s	4,7 s	3,7 s	6,99 s	6,29 s	3,59 s	3,13 s
3.	Begaboyev Oybek	1991	1 raz	KMS	15	20	20 s	29 s	4,7 s	3,4 s	6,99 s	5,80 s	4,0 s	3,40 s
4.	Ergashov Xasan	1991	1 raz	KMS	20	28	20 s	33 s	4,5 s	3,3 s	6,70 s	5,70 s	3,38 s	3,20 s
5.	Eshnazarov Odil	1991	1 raz	KMS	17	21	17 s	27 s	4,6 s	3,5 s	6,8 s	6,2 s	3,57 s	3,04 s
6.	Abdukodirov Mirjaxongir	1991	1 raz	KMS	17	22	11 s	20 s	4,6 s	3,4 s	6,70 s	5,55 s	3,38 s	3,33 s
7.	Avlayev Furqat	1991	1 raz	KMS	19	26	17 s	25 s	4,7 s	3,5 s	6,8 s	5,6 s	3,57 s	3,32 s

8.	Raxmatillayev Farrux	1992	1 raz	KMS	14	23	14 s	19 s	4,6 s	4,0 s	6,70 s	5,30 s	3,38 s	3,00 s
9.	Umarov Ulug'bek	1992	1 raz	KMS	12	22	11 s	21 s	4,7 s	3,9 s	6,8 s	5,1 s	3,57 s	3,4 s
10 .	Nurmatov Akmal	1992	1 raz	KMS	17	21	7s	18s	4.6s	3.9s	6.70s	5.14s	3.38s	3.24s
11 .	Tangatarov Sanjar	1991	1 raz	KMS	16	20	18s	25s	4.7s	3.6s	6.8s	5.45s	3.57s	3.11s
12 .	SHeraliyev Axmat	1994	2 raz	1 raz	18	25	19s	28s	4.6s	3.8s	6.70s	5.90s	3.38s	3.02s
13 .	Xolmirzayev Javoxir	1994	2 raz	1 raz	16	22	16s	22s	4.7s	4.0s	6.8s	6.00s	3.57s	3.46s
14 .	SHomalikov SHoxnur	1994	2 raz	1 raz	11	19	20s	27s	4.7s	4.0s	6.8s	5.95s	4.0s	3.99s

1000 m ga yugurish natijani 0,29 soniyaga yaxshiladi, bu esa 8,07 foizni tashkil etdi.

Akademik litseyga kirish vaqtida 14 kishidan 9 tasi 3,57 soniya ko'pga yugurgan bo'lsa, bir yildan keyin 2 kishi 3,67 soniya ko'pga yugurdi xolos.

75% maksimal darajadagiga qaraganda yugurish tezlik bilan yurish davomiyligi bo'yicha bolalarda 13-14 yoshda eng katta o'sishi ko'rsatiladi.

10 x 3 m maksimal yugurish bo'yicha akademik litseyga kirishgacha 9 bola 6,73 dan yuqori yugurib sust natija ko'rsatgan bo'lsa, 5 ta sportchi o'quv me'yorini bajarishgan. SHozirgi kunda 1 sportchidan tashqari shammasi me'yorlarni to'liq bajarishda 84,38 foizi o'zining koordinatsion sifatlarini yaxshilab olishdi.

Sportchilarni musobaqa vaqtidagi faoliyati musobaqa faoliyati deb yuritiladi. Musobaqa faoliyati eng yuqori sport natijalarga erishishga qaratilgan ayrim sharakat, usul, kombinatsiyalardan iborat. Tayyorgarlikning tashlili, jismoniy, taktik, rushiy integral darajasi bilan ta'minlanadi. Sport musobaqalarida qatnashish uchun musobaqa faoliyati ko'rinishining shakli shisoblanadi. Sport bellashuvi vaqti cheklangan raqiblik shisoblanadi, bu jarayonda bellashayotganlarning qobiliyatlari ob'ektiv ravishda solishtiriladi.

Musobaqa faoliyatining vazifasi sharakat malakasini qanchalik takomillashganini boshqa kurashchilarning takomillashuvi darajasi bilan solishtirish.

Sportchilarni musobaqa vaqtidagi faoliyati musobaqa faoliyati deb yuritiladi. Musobaqa faoliyati eng yuqori sport natijalariga erishishga qaratilgan ayrim sharakat, usullardan iborat, tayyorgarlikning texnik, jismoniy, taktik, rushiy integral darajasi bilan ta'minlanadi. Sport musobaqalarida qatnashishi uchun musobaqa faoliyati ko'rinishining shakli shisoblanadi. Sport bellashuvi vaqti cheklangan raqiblik shisoblansa, bu jarayonda bellashayotganlarning qobiliyatlari ob'ektiv ravishda solishtiriladi.

Insonning shar qanday boshqa faoliyati kabi kurashchining musobaqa faoliyati sham vaqt birligi va ma'lum makon bilan belgilanadi. SHu sababli amaliyotda quyidagi faoliyat turlari farqlanadi.

1. Elementar sharakat ta'sirini bajarish (texnik-taktik).
2. Kurashchining jangdagi faoliyati.
3. Kurashchini faoliyatini musobaqa qismlaridagi faoliyati.
4. Kurashchini musobaqa faoliyati.
5. Kurashchining butun musobaqa davomidagi ?? faoliyati.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kurashchilarning musobaqa faoliyati 5 guruhga bo'lingan.

Biz shu sababli 2 xil faoliyatini: elementar sharakat ta'sirini bajarish (texnik-taktik shamda kurashchining musobaqa faoliyatini tashlil qildik:

- YOnga yiqitish va boshqa uslublarni bajarish bo'yicha ikkita O'zbekiston birinchiligi, 2 ta turnirlar va chempionatlari musobaqa davomida 5 ta sportchi 2 martadan, 9 ta sportchi 1 martadan bajarishdi.

- CHapga va o'ngga ilib tashlash uslubini esa bitta sportchi 4 marta; uchta sportchi 3 martadan, to'qqizta sportchi 2 martadan, 8 ta sportchi 1 martadan bajarishgan bo'lsa, 9 sportchi umuman bajarisholmadi.

- qoqma uslubini olti sportchi 2 martadan; o'nta sportchi 1 martadan; 14 sportchi bu uslubga qo'llay olmagan.

- Aylantirib tashlash uslubini ikki sportchi 2 martadan ishlatgan bo'lsa, 9 ta sportchi 1 martadan; o'n to'qqiztasi bu uslubdan foydalanmagan.

- Son yordamida tashlash – 7 kishi 1 martadan, 29 shisobda bu usuldan foydalana olishmagan.

- Beldan oshirib tashlash uslubining bir sportchi qo'llagan, 6 tagacha 1 martadan; 23 sholda bu usuldan foydalanaolishmagan.

- YOnbosh uslubida 3 ta sportchi 3 martadan; beshta sportchi 2 martadan, 6 ta sportchi 1 martadan bajarishgan 15 ta sholatda bajaraolmagan.

Birinchi o'rinni egallagan sportchilar, bir musobaqada 6-8 tagacha uslub bajarishdi.

Ikkinchi o'rinni olganlar esa – 5 tadan kam uslub ishlatilmagan.

Uchinchi o'rindagilar 3 tadan 5 tasiga usul bajarishgan. Keyingi o'rindagilar esa 1-8 tagacha usul bajarishgan.

Umuman olganda, chapga va o'ngga ilib tashlash uslubi o'zining ko'rsatkichi bo'yicha 1-o'rinni; yonbosh – 2 o'rinni; yonga yiqitish – 3 o'rinda turadi.

2-jadval

Belbog'li kurashchilarning musobaqa faoliyati

№	F.I.O.	Tug'ilgan sanasi	Musobaqa nomi	Musobaqa o'tkazilgan vaqt	vazni	Musobaqalar soni		Bellashuvda ko'rsatilgan uslublar nomi							
						YUtuq lar soni	Egalla gan o'rni	usullar	YOnga vagitish	CHap a va	qoqma usuli	Aylanti rib	Son vordam	Beldan oshirib	YOnbo sh
1.	Xaitov Nodir	1991	Uzb.birin	05.07	55 kg	4	I	6	1	2	2	-	-	-	1
			Uzb.birin	04.07	55 kg	3	III	5	1	2	2	-	-	-	-
			Uzb.CChem.	04.07	60 kg	1	IX	2	-	2	-	-	-	-	-
2.	Boymuxamedov SH.	1991	Turnir	11.06	60 kg	4	III	6	-	2	-	-	-	1	3
			Uzb.birin	05.06	60 kg	5	I	8	1	3	-	-	-	1	3
			Uzb.birin	04.07	60 kg	5	I	7	2	2	-	-	-	1	2
			Uzb.chem.	04.07	60 kg	3	III	4	1	-	-	-	-	-	3
3.	Begaboyev Oybek	1991	Uzb.birin	05.07	q65 kg	1	YIII	2	-	-	-	1	1	-	-
			Uzb.birin	04.07	83 kg	2	III	3	-	-	-	2	1	-	-
4.	Ergashov Xasan	1991	Uzb.birin	05.07	65 kg	2	III	4	-	2	2	-	-	-	-
			Uzb.birin	04.07	65 kg	3	III	6	1	2	2	1	-	-	-
5.	Eshnazarov Odil	1991	Uzb.birin	05.07	60 kg	1	XY	1	-	1	-	-	-	-	-
			Uzb.birin	04.07	60kg	2	YII	3	-	2	1	-	-	-	-
6.	Abdukodirov Mirjaxongir	1991	Uzb.birin	05.07	q65 kg	1	XII	1	-	-	1	-	-	-	-
			Uzb.birin	04.07	77 kg	2	III	3	-	1	2	-	-	-	-

7.	Avlayev Furqat	1991	Uzb.birin Uzb.birin	05.07 04.07	60 kg 60kg	2 3	YIII III	4 6	2 2	1 1	1 1	- 1	- -	- -	- -
8.	Raxmatillayev Farrux	1992	Uzb.birin Uzb.birin	05.07 04.07	60 kg 55 kg	5 5	I I	6 7	1 1	3 4	1 1	1 1	- -	- -	- -
9.	Umarov Ulug'bek	1992	Uzb.birin Uzb.birin Uzb.CHem.	05.07 04.07 04.07	q65 kg 71 kg 73 kg	2 4 3	YI II III	 5 5	- - -	1 1 -	- - -	- 1 2	1 1 1	1 2 -	- 1 2
10 .	Nurmatov Akmal	1992	Turnir Uzb.birin Uzb.birin	11.06 05.06 04.07	66 kg 65 kg 65 kg	1 5 4	XII I II	2 7 5	2 1 1	- - -	- 2 1	- 1 1	- 1 -	- 1 -	- 2 2
11 .	Tangatarov Sanjar	1991	Uzb.birin Uzb.birin	05.07 04.07	50 kg 50 kg	1 1	YIII YIII	3 2	2 1	1 -	- -	- -	- -	- -	- 1
12 .	SHeraliyev Axmat	1994	Uzb.birin	04.07	42 kg	3	III	4	1	-	1	-	1	-	1
13 .	Xolmirzayev Javoxir	1994	Uzb.birin	04.07	46 kg	3	III	5	-	1	1	1	-	1	1
14 .	SHomalikov SHoxnur	1994	Uzb.birin	04.07	50 kg	4	I	8	3	1	1	-	-	1	2

X U L O S A L A R

1. Sportchining sport yutuqlariga tayyorligi jismoniy va ruhiy ish qobiliyatining bosqichiga erishish, zaruriy bilim va o'quv malakasini oshirish bilan izoshlanadi.
2. Tayyorgarlik strategiyasi, bilim tizimini shakllanishi, tuzilishi, sport rivojlanishini vosita va usullari, sportchining ko'p yillik tayyorgarlik tizimi bilan bog'liq.
3. Sport natijalari ko'p sonli usullar va sharakatlarning bir tizimiga birlashishidan, musobaqa faoliyatida sport turlarining texnikasi deb qaraladi.
4. Yakkakurashlarda (kurash, boks) yuklamalar shajmi odatda YUKTU ni va energota'minot xarakteriga bog'liq sholda ballarda basholanadi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Tadiqot davomida qo'llanilgan belbog'li kurashchilarni musobaqa faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari, tahlili, belbog'li kurash turida jismoniy sifatlarini, texnika-taktik vosita va uslublarini musobaqa jarayonida tadbiq etishga qaratilgan.

2. Belbog'li kurashchilarni musobaqa faoliyatida 5 ta guruh faoliyati aniqlandi va ular musobaqa faoliyatini ilmiy asoslash imkonini beradi:

- Elementar sharakat ta'sirini bajarish (texnik-taktik);
- kurashchining jangdagi faoliyati;
- kurashchini faoliyatini musobaqa qismlaridagi faoliyati;
- kurashchini musobaqa faoliyati;
- kurashchining butun musobaqa davomidagi texnik–taktik, hujum va himoya faoliyati.

3. Belbog'li kurashda eng ko'p ishlatiladigan chapga va o'nga elib tashlasha uslubi, yonbosh va yonga yiqitish usullari ko'proq qo'llashni tavsiya etgan.

4. Mazkur dissertatsiya natijalari, ularni taxlili va qayd etilgan xulosalardan kurashchilarni tayyorlash amaliyotida foydalanish musobaqa faoliyatidagi texnik-taktik harakatlarni hujum, himoyaga o'tish va uni baholashga imkon yaratadi.

1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008.
4. Karimov I.A. "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlash va yangilash, mamlakatni moderinizatsiya va islox etishdir". – T.: O'zbekiston, 2005, 76-b.
5. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovar maqsadimiz". 8-t, – T.: "O'zbekiston", 2000, 426-b.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T: «SHarq», 1999.
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. - T: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T: "O'zbekiston ", 2000.-80b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis qilish to'g'risidagi Farmoni. Turkiston.-1995.-6 mart.
10. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun (1992 yil 14 yanvar. "Xalq so'zi" gazetasi.
11. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: O'zbekiston. 1992. 78 b.
12. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston. 1992. 26 b.
13. Ayrapetyans L.R., Godik M.A. Sportivno'e igro', -T, "Ibn Sino" 1991, 156 st.
14. Ayrapetyans L.R Pedagogicheskuyu osnovo' planirovaniyeya i kontrolya sorevnovatelnoy i trenirovochnoy deyatelnosti v sportivno'x igrax: Avtoref diss.dokt.ped.nauk-M 1992,40 s.
15. Abdiyev A.N. «Borba organizatsiya vosstanovitelno trenirevochnogo protsessa na polesorevnovatelnom etape» Toshkent 1997 y. 33st

16. Keller V.S. Sorevnovatelnaya deyatelnost v sisteme sportivnoy podgotovki. V kn.: Sovremennaya sistema sportivnoy podgotovki. M.: SAAM. 1985. S.41-49.
17. Kerimov F.A. «Kurash tushaman» Toshkent 1990 y.254st.
18. Kerimov F.A. Primeneniye modelno'x xarakteristik sorevnovatelnoy deyatelnosti v upravlenii podgotovki borsov, V kn. «Nauchno-metodicheskoye obespecheniye vo'sokokvalifitsirovanno'x sportsmenov po itogam XXVI Olimpiyskix igr», T., 1996 g., s.33-36.
19. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi v usuliyati, T., 2001 y., 286 b.
20. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, T., 2004 y., 47 b.
21. Kerimov N.A Skorostno – silovaya podgtovka dzyudoistov i borsov volnogo stilya (metodicheskiye rekomendatsii-T,1990).
22. Kerimov N.A. «Metodika programmirovaniya skorosti o silovoy podgotovki v sportivnoy borbe» Toshkent 1994 y.63st.
23. Kerimov F.A. kurash sport turi nazariyasi va uslubiyati – T. O'zDJTI, 2001y 230 bet.
24. Kerimov F.A., YUsupov N. «Kurash uchun harakatli o'yinlar» Toshkent 1993 y. 6 bet.
25. Novikov A.A. Nurshin J., Toymurodov N., SHokirjonov A. «O'zbekcha milliy kurash usullari» Toshkent 1999 y.46st.
26. Nurshin J.M., Salomov R.S.G Kerimov F.A. «O'zbekcha milliy kurash» Toshkent 1993 y.67st.
27. Nurullayev A.Q. «Buxorocha milliy kurashda texnik — taktik tayyorgarlikni kuch, tezkorlik sifatini takomillaytirish asosida oshirish» nomzodlik dissertatsiyasi, avtoreferat. Toshkent 1997 y.78st.

**Navoiy davlat pedagogika institutida 4-kurs A-2 guruh talabasi Safarov
Lochinning “Belbog’li kurashchilarning musobaqa faoliyati” mavzusida
bajargan bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlagandek, Respublikamizda turli toifadagi aholini jismoniy rivojlantirish va jismoniy tarbiyalash Davlat siyosatining muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Ayniqsa mamlakatimizda aholining sog’ligini va mustahkamlashga ilmiy asoslangan yondashuv hamda uni amalga oshirish usullarini yanada takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilgan.

Zamonaviy sport kurashi texnik-taktik harakatlarning tez kechishi bilan tavsiflanadi. U sportchilardan vaqt tanqisligi sharoitlarida maksimal kuchlanishlarini taqoza etadi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi.

Har bir millatning o’z milliy sporti bo’lganidek, qadimdan o’zbek xalqining iftixori bo’lgan kurashlari mavjud bo’lib, ular «Buxorocha» va «Farg’onacha» deb nomlangan. Bugungi kunga kelib «Buxorocha usul: Kurash», «Farg’onacha usul: Belbog’li kurash» deb nom oldi.

Belbog’li kurashning tarixiga nazar soladigan bo’lsak: belbog’li kurash sharqona guzal urf-odatlar va qadriyatlarni asl shakl-shamoyilini o’zida mujassam etgan, 5000 yildan ortiqroq tarixga ega bo’lgan sport turlaridan hisoblanadi.

Mardlik, jasurlik, halollik, odillik, kamtarlik va tantilik singari ajoyib insoniy fazilatlarni shakllantiruvchi ushbu sport turi ayniqsa, Respublikamiz mustaqillikka erishgandan sung jadal sur’atlar bilan rivojlana boshladi.

Belbog’li kurash eng qadimiy sport turlaridan biri bo’lib, odamlar jismoniy tarbiya bilan shug’ullana boshlagandan buyon polvonlar maydonga tushib, belbog’ ushlab kuch sinashganlar. Bitiruv malakaviy ishi “Kirish”, 3 ta bob, “Xulosa” va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati” kabi qismlardan iborat bo’lib, an’anaviy tartibda ishlab chiqilgan. Ishning “Kirish” qismida qo’yilayotgan muammoning dolzarbligi, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Xulosalar olingan natijalarga asoslangan bo’lib, ishda belgilab olingan maqsad va vazifalar mohiyatini

ochib berishga yaqinlashgan. Mazkur ilmiy ish muhim ahamiyatga molik bo'lib, muallif dolzarb muammo ustida izlanish olib borgan. Bitiruv malakaviy ishi qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Taqriz:

**Navoiy davlat pedagogika institutida 4-kurs A-2 guruh talabasi Safarov
Lochinning “Belbog’li kurashchilarning musobaqa faoliyati” mavzusida
bajargan bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarning**

XULOSASI

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi Qonunlarda, “Kadrlar to’ylash milliy dasturi”da jismoniy tarbiya darslariga zarur tuzatishlar kiritish, ularning samaradorligini oshirish asosiy maqsad qilib qo’yilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida”gi Qonunida (yangi tahrir) jismoniy tarbiya bo’yicha majburiy darslar, darsdan tashqari mashg’ulotlar va test sinovlari barcha ta’lim muassasalarida o’quvchilarning fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda o’tkazilishi ta’kidlangan. “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi PF-3154-sonli Farmonda bolalarni jismoniy tarbiyalashning ilmiy asoslangan zamonaviy tizimlari, shakl va uslublarini joriy etish, bolalar sporti bo’yicha ustozlar va pedagog kadrlarni mamlakatning yetakchi ilmiy hamda ta’lim markazlari va chet ellarda tayyorlash masalasini hal qilish ko’rsatilgan.

Respublika Olimpiya zahirolari kollejining o’quv dasturiga kiritilgan belbog’li kurash mashqlarini o’rgatishni ilmiy asoslash, 13-16 yoshdagi sportchlarning dasturdagi mezonlarni bajarishlari juda katta yordam beradi, aks holda kollejni bitirish oldidan ham belbog’li kurash talablarini bajara olmasligi mumkin.

Jismoniy tarbiyaning muhim muammolaridan biri harakat faoliyatiga o’rgatishni optimallashtirishdir. Respublika Olimpiya zahirolari kollejlari o’quvchilarining jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini belgilab beruvchi “Alpomish” hamda “Barchinoy” maxsus testlarining har bir bosqichining me’yoriy talablariga kiritilgan jismoniy tarbiya testlari bo’yicha, dasturda ko’zda tutilgan uloqtirish mashqlari uning amaliy ahamiyatidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishi “Kirish”, 3 ta bob, “Xulosa” va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati” kabi qismlardan iborat bo’lib, an’anaviy tartibda ishlab

chiqilgan. Ishning “Kirish” qismida qo’yilayotgan muammoning dolzarbligi, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

I bob mavzu doirasiga oid ilmiy-uslubiy va o’quv adabiyotlarini atroflicha qiyosiy tahlil qilish asosida masalani o’rganilganlik darajasini ochib berishga bag’ishlangan. II bobda tadqiqotning o’tkazish uslublari va tashkiliy masalalar o’z ifodasini topgan. III bobda jismoniy tarbiya darslarida boshlang’ich sinf o’quvchilarning mashqlar yuklamasini me’yorlashning shakl va uslublarini takomillashtirishni tajribada isbotlash atroflicha muhokama etilgan.

Xulosalar olingan natijalarga asoslangan bo’lib, ishda belgilab olingan maqsad va vazifalar mohiyatini ochib berishga yaqinlashgan. Mazkur ilmiy ish muhim ahamiyatga molik bo’lib, muallif dolzarb muammo ustida izlanish olib borgan.

Bitiruv malakaviy ishi qo’yilgan talablarga to’liq javob beradi va uni himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

Raxmonov F.P.

**Navoiy davlat pedagogika institutida 4-kurs A-2 guruh talabasi Safarov
Lochinning “Belbog’li kurashchilarning musobaqa faoliyati” mavzusida
bajargan bitiruv malakaviy ishiga
T A Q R I Z**

Musobaqalar – sportning zarur elementlaridan, uning talablari esa sport nazoratining yetakchi bo’limlaridan hisoblanadi. Musobaqa faoliyati nazariyasining asosiy muammosi, bu – musobaqa jarayonidagi sport natijalarining yuqoriligi va ularni o’rganish.

Sport musobaqalari va natijalari ko’p bosqichli tizimni yuzaga keltiradi. Musobaqaning turli toifalari mavjud: turli xil ichki birinchilik va chempionat musobaqalaridan tortib, to jahon chempionati va Olimpiya o’yinlarigacha. Hatto bitta toifadagi musobaqalarda oraliq natijalar (dastlabki va final yugurish, chempionatning alohida o’yinlari yakuni, uchrashuvlarda esa kiritilgan yoki o’tkazib yuborilgan to’plar va x.k.) aniq ajralib turadi.

Alabatta, biror musobaqada qatnashishdan maqsad – rejalashtirilgan sport ko’rsatkichiga, yutug’iga (omadga) erishish. Misol uchun g’alaba, rekord o’rnatish, sovrindorlar qatoridan joy olish, razryadli yoki oliy toifali me’yorlarni bajarish va boshqalarni rejalashtirish mumkin. Ba’zida natija va ko’rsatkichlardagi ma’lum farqlanish bilan durang yoki mag’lubiyat ham, agar bu yakuniy natija yuqori bosqichli bellashuvlarda maqsadga erishishda kifoya bo’lsa, yutuq hisoblanadi (masalan, finalga chiqish va shunga o’xshash).

Ko’pincha musobaqa ishtirokchisi alohida bitta sportchi emas, balki sport jamoasi sanaladi. Bu jamoa tarkibiga asosiy va zahiradagi sportchilar, murabbiylar (musobaqa faoliyatining rahbari sifatida), sport shifokori, ilmiy kompleks guruhlari mutaxassislari (sportchi va murabbiylarga musobaqalar jarayonida qaror qabul qilishlari uchun tezkor ma’lumotlar yetkazib beruvchi kishilar), shuningdek, musobaqalar paytida jamoa yutuqlarida ishtirok etuvchi, o’z xissasini qo’shuvchi jamoaning boshqa a’zolari ham kirishi mumkin. Yana musobaqalar paytida tez-tez boshqa insonlarning maqsadga intiluvchi faolligi ko’zga tashlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi: Kirish qismidan, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida qo’yilgan

muammoning dolzarbligi, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyati yetarli darajada asoslab berilgan.

Birinchi bobida mavzu doirasiga oid ilmiy-uslubiy va o'quv adabiyotlarini atroflicha qiyosiy tahlil qilish asosida masalani o'rganilganlik darajasini ochib berishga bag'ishlangan. Ikkinchi bobida tadqiqotni o'tkazish uslublari va tashkiliy masalalar o'z ifodasini topgan. Unda pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba, matematik statistika uslublaridan keng va aniq foydalanilgan. Uchinchi bobida pedagogik tajribalar samaradorligi aniqlangan. Tajribada qo'llanilgan vositalar va usullarning samardorligi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini tahlil qilingan.

Xulosalar olingan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ishda belgilab olingan maqsad va vazifalar mohiyati ochib berilgan. Bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan talablar to'liq bajarilgan va u himoya etishga ruxsat etiladi.

Taqrizchi